

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
J.G'.Numonova	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
J.G'.Numonova	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
O.Z.Dadajonov	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
S.A.Yusupova	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
N.M.Merganova, N.A.Orifjonova	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
G.A.To'lanboyeva	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
N.M.Merganova	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
C.X.Azimova	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
N.A.Komilova	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
Y.A.Nasirdinova	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
Y.A.Nasirdinova	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
S.To'lanov	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
S.To'lanov	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
Y.U.Abdurazzakov	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
Sh.M.Yusufjonova	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
N.A.Nizomova	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
G.Astonova, M.M.Kaharova	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
N.A.Nizomova	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
S.I.Quziyev	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
Z.M.Yigitaliyeva	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
Z.M.Yigitaliyeva	
About the term of persuasion.....	979



UO'K: 8-1+7. 047.1/2

ABDULLA SHE'R IJODIDA G'OYAVIY AN'ANA

ВООБРАЖАЮЩАЯ ТРАДИЦИЯ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ШЕР IMAGINATIVE

TRADITION IN THE POETRY OF ABDULLAH SHER

Xaqnazarova Sayyora Abduraxmonovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir va tarjimon Abdulla Sher ijodi haqida so'z yuritilib uning ijodida an'ana va uning turlari misollar orqali tahlil qilingan. Ijodkorlar adabiyotimizdagi janrlar an'anasini, hamda o'sha asarlardagi ilgari surilgan g'oyalarni uzviy davom ettirdilar. Yozuvchi hayotdagi voqea va hodisalarga qanday munosabatda bo'lsa, ularni shu xilda tasvirlab, kitobxonlarda ham shu hodisalarga nisbatan ana shunday munosabat tug'diradi. Asar badiiy-hissiy mazmunini asarning badiiy g'oyasi ochib beradi. Shuning uchun asosiy g'oya ham, asosiy tema kabi asardagi obrazlarda, ularning xatti-harakatida mujassamlashgan va voqea-hodisalarga ifodalangan g'oyalardan tashkil topadi, hamda yozuvchining shu obraz va hodisalarga, ya'ni hayotga bo'lgan munosabatini anglatadi. G'oya ijodiy jarayonda yuzaga keladi va asarning konkret materialida ifodalanadi. Shunga ko'ra, asarning g'oyaviy-tematik mohiyati obrazlarni va hodisalarni analiz qilish orqali aniqlanadi. Shoir she'rlarida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi va hayot haqiqatini aks ettirish ehtiyoji yuqori o'rinda turadi. Ijodkor o'z g'oyalari va intilishlaridan kelib chiqib, xilma-xil jarayonlar, insonlar faoliyati, narsa-hodisalarni yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh kabilarga ajratadi, ularni baholaydi. Bu esa shoir falsafasi va uning ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati asosidagi badiiy dunyoqarashining baholash funksiyasini anglatadi.

Аннотация

В данной статье рассказывается о творчестве поэта и переводчика Абдуллы Шера и на примерах анализируются традиции и их виды в его творчестве. Создатели продолжили жанровую традицию нашей литературы, а также идеи, заложенные в этих произведениях. Как писатель реагирует на события и происшествия в жизни, так и описывает их, и создает такое отношение у читателей к этим событиям. Художественно-эмоциональное содержание произведения раскрывается художественной идеей произведения. Поэтому главная мысль, как и основная тема, состоит из идей, воплощенных в персонажах, их поведении и событиях, и представляет отношение писателя к этим персонажам и событиям, то есть к жизни. Идея возникает в творческом процессе и выражается в конкретном материале произведения. Соответственно, идейно-тематическая сущность произведения определяется путем анализа образов и событий. В стихах поэт приоритет общечеловеческих ценностей, необходимость отражения реальности жизни стоит на высшем месте. Исходя из своих идей и стремлений, творец разделяет различные процессы, деятельность людей, вещи и события на хорошие и плохие, полезные и вредные, заслуги и грехи, дает им оценку. Имеется в виду задача оценки художественного мировоззрения, исходя из философии поэта и отношения к общественной жизни.

Abstract

This article talks about the work of poet and translator Abdulla Sher and analyzes the tradition and its types in his work through examples. The creators continued the tradition of genres in our literature, as well as the ideas presented in those works. As the writer reacts to events and incidents in life, he describes them in the same way, and creates such an attitude in the readers towards these events. The artistic and emotional content of the work is revealed by the artistic idea of the work. Therefore, the main idea, like the main theme, consists of the ideas embodied in the characters, their behavior and events, and represents the attitude of the writer to these characters and events, that is, to life. The idea arises in the creative process and is expressed in the concrete material of the work. Accordingly, the ideological and thematic essence of the work is determined by analyzing images and events. In the poems of the poet, the priority of universal values and the need to reflect the reality of life are at the top. Based on his ideas and aspirations, the creator divides various processes, people's activities, things and events into good and bad, useful and harmful, merit and sin, and evaluates them. This means the evaluation function of the artistic outlook based on the poet's philosophy and his attitude to social life.

Kalit so'zlar: goyaviy an'ana, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ajdodlarga hurmat, sevgi muhabbat, badiiy ifodalash, falsafiy qarashlar, poetik mahurat, badiiy tasvir.

Ключевые слова: традиция, любовь к Родине, гуманизм, уважение к предкам, любовь, художественное выражение, философские взгляды, поэтическое мастерство, художественный образ.

Key words: tradition, love for the Motherland, humanism, respect for ancestors, love, artistic expression, philosophical views, poetic skill, artistic image.

KIRISH

Maqolada Abdulla Sher ijodida an'ana turlaridan g'oyaviy an'ana xususida misollar orqali tahlillar keltirilgan. Shoir ijodida goyaviy an'anadan foydalanib, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, xalqiga sadoqat, ajdodlarga hurmat kabi g'oylarni targ'ib qiladi. Shoir she'rlarida Vatanga bo'lgan muhabbatini badiiy tasvirlar orqali yuksak darajada mahorat bilan tarannum etadi. Uning she'rlari insonga ma'naviy ozuqa berib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

An'ana va uning turlari xususida adabiyotshunoslikda bir qancha olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Jumladan, "Fan" nashriyoti tomonidan nashr qilingan akademik M.K. Nurmuhammedov tahriri ostida "Adabiyot nazariyasi" 2-tomlik kitobida, Izzat Sultonning 2005 yil nashr qilingan "Adabiyot nazariyasi" kitobida, Hotam Umurovning "Adabiyot nazariyasi" darsligida, Dilmurod Quronovning "Adabiyotshunoslikka kirish" kitobida (2004 yil), "Adabiyotshunoslik lug'ati", kitobida (2010 yil), Erkin Xudoyberdiyev "Adabiyotshunoslikka kirish" darsligida (2008), To'xta Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida (2002 yil), Yoqubjon Isohoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobida (2014), Saydulla Mirzayev "Hayot va adabiyot" nomli kitoblarida (2001 yil), an'ana to'g'risida, adabiyotimizning boyliklari, xalqchilligi, milliyligi, zamonaviyligi, janr xilma-xilligi, badiiy mahorat va badiiy til masalalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

She'rlar tahlili jarayonida badiiy tahlil, germenefika, badiiy matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX-asrning 60-yillar so'nggi 70-yillar boshlarida o'zbek adabiyotida o'ziga xos burilish davri bo'ldi. Ayni shu yillarda ayniqsa, she'riyat olamida turfa xil o'zgarishlar ro'y berdi, inson shaxsini, qalb kechinmalarini kuylash, sevgi dardi, hijron, hayot tashvishlari, turmush murakkabliklari haqida ham cho'chimasdan yozish tamoyillari ko'zga tashlana boshladi. Adabiyotning barcha janrlarida salmoqli asarlar yaratildi. Bu ijodiy hodisaning ta'siri tezda o'z samarasini berdi. Ayniqsa, she'riyatda jiddiy o'zgarish, olg'a siljish yaqqol ko'zga tashlandi. Poeziya maydonidagi yangilik mevalari haqida adabiy tanqidchilikda ham samimiy mulohazalar bildirildi.

Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962 yil) nomli yirik tadqiqotida o'zbek she'riyati lirikasidagi rang-barang izlanishlar, yuksalish va ayrim nuqsonlarni teran umumlashtirib bergan edi. Biz uchun eng muhimi shuki, ana shu kitobda she'riyatga yangi ohang, yangi mavzu va ranglar olib kirayotgan yosh iste'dodlar qatorida Abdulla Sherning nomi ham tilga olingan va uning ijodi haqida iliq fikrlar bildirilgan edi. Bundan tashqari, adabiyotshunos olimning "Go'zallik izlab" (1985) kitobida ham "Shoirning bahoriy sozi" nomli maqola chop etilgan va bu maqolada olim yosh shoir Abdulla Sher to'g'risida o'zining iliq fikrlarini bildirgan:

"Abdulla Sher birinchi she'rlari bilanoq shoirlik uchun eng zaruriy sifatga-o'ziga xoslikka ega ekanini namoyish etdi. Yillar o'tib, bu o'ziga xoslik yo'qolib ketgani yo'q, balki, aksincha, tobora balog'atga yetib, to'lishib bormoqda". [1.72]

Munaqqid, adabiyotshunos olim shoir ijodini yuksakka ko'tarish bilan birga an'anaviy she'riyat tizimidan chiqmagan holda o'ziga xos uslub yaratganini ta'kidlaydi.

Abdulla Sher 70-yillar adabiy muhitiga o'zining individual, betakror shakl va mazmunini olib kira olgan shoirlardan biridir.

"Abdulla Sher poeziyasining o'ziga xos tomoni shundaki, unda she'riyatga xos ko'tarinkilik, pafos bugungi hayotning aniq nishonalari bilan, real voqealar va hodisalar chatishib ketadi. Shu ma'noda she'rlarning ko'pchiligi tarixiy konkretlik kasb etadi va umuman odamning emas, balki 70-yillardagi o'zbek yoshlarining tuyg'ularini, o'y-fikrlarini ifodalaydi". [2.8]

Ushbu fikrlar adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov qalamiga mansub bo'lib, olim Abdulla Sherning "Muhabbat sohili" nomli kichik saylanmasiga taqriz bergan edi. O'sha davr taqozosi bilan kitob nashrdan chiqmagan, biroq olimning taqrizi saqlab qolinib, 2012 yilda nashr etilgan "Gul yillar – bulbul yillar" nomli kitobiga so'z boshi sifatida kiritilgan. Uning dastlabki ijod namunalarida o'sha davr yoshlarining his-tuyg'ulari, intilishlari, orzu-istaklari aks etgan edi.

TILSHUNOSLIK

“Abdulla Sher – poeziyada o‘z avlodining oldingi safflarida borayotgan yosh shoir. Uning ijodi haqida gapirish 70 - yillar yosh o‘zbek poeziyasining eng yaxshi fazilatlarini haqida gapirish degan so‘z. Bunday fazilatlardan biri, mening nazarimda, poetik fikrning quyuqligidir. Bu, albatta, yangi bir kashfiyot emas, fikrchanlik-azaldanoq poeziyamizning eng yorqin an‘analaridan biri. Lekin unga sodiqlikning, o‘zi bir fazilat desak bo‘ladi”. [3.2]

Ozod Sharafiddinov to‘g‘ri e‘tirof etganidek, Abdulla Sher o‘zidan oldin o‘tgan ijodkorlar an‘anasini davom ettirgan holda, poetik jihatdan mukammal asarlar yaratish maqsadida qalam tebratdi.

“Har qanday taraqqiyotda o‘zaro bog‘liqlik, davomiylik, an‘anaviylik bo‘ladi. Adabiy taraqqiyotdagi har bir yangi ulkan hodisa ham o‘tmishdagi eng yaxshi an‘analarni ijodiy davom ettirilishi natijasida yuzaga keladi. Adabiyot taraqqiyotida g‘oyalar, tiplar va badiiy tasvir vositalari doirasida an‘anaviylikni farqlash zarur. Adabiy jarayondagi g‘oyaviy an‘anaviylik to‘g‘ridan-to‘g‘ri muyaayn ijtimoiy kuchlar rivojidadagi davomiylikni, an‘anaviylikni aks ettiradi. Badiiy ta‘sir sohasidagi an‘anaviylik o‘ziga xos xususiyatga egadir”. [4.234]

Abdulla Sher g‘oyaviy jihatdan pishiq, obrazlar rang-barangligi va turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda asarlar yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Fikrimizning dalili sifatida adabiyotshunos olim Zohid Vohidov “O‘zbek badiiyatining zarvaraqlari” nomli kitobida iqtidorli shoir Abdulla Sherga bergan quyidagi ta‘rifiga e‘tibor qaratamiz: “Abdulla Sherning shoir sifatidagi o‘zligini belgilashda mavzu rang-barangligi, orginallik, fikriy teranlik, badiiy savodxonlik, kashfiyotga intilish kabi xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi”. [5.423]

Bizga ma‘lumki, an‘ananing quyidagi ko‘rinishlari mavjud: g‘oyaviy, tipik va formal. G‘oyaviy an‘ana turlariga shoirming Vatan, insonparvarlik, ajdodlarga hurmat, sevgi muhabbat mavzularini tarannum etgan she‘rlarini olishimiz mumkin. Shoir lirikasida yaratgan qahramonlar obrazi tipik an‘anaga, foydalangan badiiy vositalar esa formal an‘analarga misol bo‘la oladi. Uning she‘rlarini tahlil qilish jarayonida ijodida qaysi an‘ana turlariga ko‘proq ahamiyat berganini ko‘rib o‘tamiz. Bizga ma‘lumki, g‘oyaviy an‘analar har bir shoir ijodida yetakchi an‘ana turi hisoblanadi. Shoirming 1972-yil yozilgan “Maktub” degan she‘rida vatanparvarlik, Vatanga sadoqat g‘oyalari ilgari surilgan va uning bu she‘ri g‘oyaviy an‘ana turiga misol bo‘ladi:

Ikkimiz ham xalqimizni, Vatanni suyub,
Qo‘limizdan neki kelsa- shuni qilamiz.
Yuragimiz dardlarini unutib qo‘yib,
Yuraklarning dardi bilan yona bilamiz.

(“Maktub”, 1972)

Do‘stga yozilgan bu maktubda Vatanga bo‘lgan munosabat, do‘stlikka munosabat, ona tuproqqa bo‘lgan mehr, Vatanga bo‘lgan muhabbat kabi yuksak ekanligini go‘zal tasvirlaydi. Do‘stga murojaat tariqasida Vatani sevish va unga sadoqat bilan xizmat qilish tuyg‘ularini ifodalaydi. Vatanparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalari “Maktub” she‘rining asosiy mazmun mohiyatidir.

Bu she‘r haqida adabiyotshunos olim Ortiqboy Abdullayev shunday fikr bildiradi: “Bu misralarda shoirming yuksak e‘tiqodlari, xalqiga muhabbati ravshan aks etgan. Zamonamiz kishilarining ma‘naviy dunyosiga xos ichki go‘zallik, poklik shoirona nigoh bilan ilg‘ab olingan”. [6.227]

Ona va Vatan mavzusi o‘lmas mavzular hisoblanib, bu mavzu har bir ijodkor qalamiga mansub bo‘lib, har birining ijodida o‘ziga xos talqin etilishi bilan muhim hisoblanadi.

An‘anani badiiy jihatdan ifoda etish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Abdulla Sher lirik she‘rlarida mavjud adabiy an‘analarga rioya etib, unda o‘zi sevgan yurtning go‘zal manzaralarini, o‘z xalqiga muhabbatini jo‘shqin misralarda kuylaydi. Adib ijodida Umar Xayyom ijodiga mansub g‘oyaviy an‘analarni kuzatish mumkin. Dunyo falsafasi bilan shug‘ullanish, mavjudotlar sirini izlash Xayyom ruboiylarining asosiy g‘oyasi bo‘lgan:

Ey falak, doimo hunaring buzmoq,
Eskidan odatning zulm ko‘rguzmoq.
Yer! Agar bag‘ringni yorib ko‘rsalar.
Chiqardi qanchalab inju yaltiroq.
(Umar Xayyom, “Ruboiylar”)

Umar Hayyom ijodida inson qalbi, uning ruhiy kechinmalari, orzu-o'ylari, kayfiyatlari, hayot mantiqi, inson qalbi bilan real hayot orasidagi munosabat, dunyoni sir-sinoatlariga qiziqish asosiy mazmun qilib olingan.

Abdulla Sher ijodida ham Umar Xayyomning falsafiy qarashlarining ta'siri kuchini sezamiz. Dunyo jumboqlariga qiziqish, hayot haqiqatlarini izlash singari falsafiylikka yo'g'rilgan g'oyalar shoir ijodida ham kuzatiladi:

Xayyomni yod olib, o'yladim uzoq
Va bildim:bu dunyo chiroyli tuzoq,
Go'zallik- hayotning moviy ko'lida
Egasin topolmay qalqqan oqizoq.
("Ruboiylar" turkumidan 2004.)

Aynan bu kabi she'rlar shoir ijodida talaygina bo'lib, "Ruboiylar", "O'zbekiston", "Osiyo ovozi", "Vatan", "Oila", "Sevgilim" shular jumlasidandir. Shoiring dunyoqarashi, orzu-intilishlari, g'oyaviy yo'nalishi, qolaversa, insoniy fazilatlarini uning ijodiy namunalari ko'rishimiz mumkin. She'rlardagi Vatanga muhabbat, ezgulik, odamiylik, sevgiga sadoqat shoir ijodining asosiy badiiy g'oyasini tashkil qiladi.

Har qanday ijodkor qaysi zamonda yashashidan qat'iy nazar, o'sha davr turmush tarzini, xalqining istaklarini, dardlarini ochiqlashga intiladi. Va, bu hislar, tuyg'ular har bir shoir asarlarining asosiy mazmuniga aylanadi.

"Har bir adabiy asar yozuvchining ayni mahalda qanday g'oyalarning maftuni ekanidan, hayotda nimalarni tasdiqlab, nimalarni rad etayotganidan dalolat sifatida maydonga keladi. Shu bilan birga, har bir asarning ana shunday ruhi hamda yozuvchining butun ijodiy mahsuloti va hatto hayoti, ijtimoiy faoliyati orasida umumiylik bor. Yozuvchi o'z asarini befarq, beehtiros yoza olmaydi. Bu ehtiros har bir yirik yozuvchida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi". [7.90]

XULOSA

Abdulla Sher ijodini tahlil qilish jarayonida uning she'rlari g'oyasini anglab yetamiz va undagi ehtirolarni his etamiz. Abdulla Sher ijodi she'rlar, tarjimalar, falsafiy-axloqiy asarlar, publitsistik asarlar yo'nalishlari bo'yicha o'rganishni taqozo etadi. Har bir tanlagan mavzusining estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga, she'rlarida muayyan g'oyani ilgari surishga imkoniyat yaratadi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari shoir she'rlarining emotsionalligini, badiiy estetik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Abdulla Sher ajdodlar an'analari davom ettirib, Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, ajdodlarga hurmat va ehtiros g'oyalarini tarannum etadi. Shoir she'rlari kitobxonda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllanishida dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXAT

- 1.Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. Шоирнинг баҳорий сози. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.– Б. 72.
- 2.Абдулла Шер. Гул йиллар-булбул йиллар. – Тошкент: Фафур Фулом Адабиёт ва санъат нашриёти, Сўзбоши. 2012.– Б.8.
- 3.Асқад Мухтор. Сўзбоши. Абдулла Шер. Атиргул сояси. – Тошкент: Ёш гвардия нашриёти.,1979.– Б. 2.
- 4.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: ЎАЖБНТ Маркази, 2003.– Б.234.
- 5.Зоҳидов В.Ўзбек бадийати зарварақлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.– Б.423.
- 6.Абдуллаев О. Янги чашмалар. – Тошкент: Шарқ юлдузи, 1974. – №12. – Б.227.
- 7.Иззат Султон. Адабиёт назарияси.–Тошкент: Уқитувчи, 2005.– Б. 90.